



DAVLAT FUNKSIYALARINI ZAMONAVIY MEZONLAR ASOSIDA TASNIFFLASHDA YANGICHA QARASHLAR TAHLLILI

Nuraliyev Tolibjon Ne'mat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

Annotatsiya. Davlat funksiyalarini tasniflash orqali uning faoliyat yo'nalishi, davlatning maqsad va vazifalari qay sohaga yo'nalganligini aniqlashimiz mumkin. Davlat funksiyalarini tasniflash masalasida aniq bir mezonlar shu kungacha ishlab chiqilmagan. Bu davlatning tadrijiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, taraqqiyotning u yoki bu bosqichida davlatning funksiyalariga e'tibor ortib ayrim funksiyalariga esa kamayib boradi. Bugungi kunda globallashuv natijasida davlat funksiyalariga ham yangicha qarashlar bilan yondashish zarurati paydo bo'lmoqda.

Kalit so'zlar. Davlat qurilishi, yumshoq kuch, hard power, axborot xuruji, raqamli xavfsizlik, globallashuv, integratsiyalashuv, ekologik inqiroz, ijtimoiy funksiyalar, diplomatik jozibadorlik, axborot asri.

Аннотация. Классифицируя функции государства, мы можем определить направление его деятельности, на какую сферу направлены цели и задачи государства. Конкретные критерии в вопросе классификации функций государства до сих пор не разработаны. Это связано с историческим развитием государства, когда на той или иной стадии развития внимание к функциям государства возрастает, а к отдельным функциям уменьшается. Сегодня в результате глобализации возникает необходимость подойти и к функциям государства с новыми взглядами.

Ключевые слова. Государственное строительство, мягкая сила, жесткая сила, информационная атака, цифровая безопасность, глобализация,



интеграция, экологический кризис, социальные функции, дипломатическая привлекательность, информационный век.

Annotation. By classifying the functions of the state, we can determine the direction of its activity, what area the goals and objectives of the state are oriented. When it comes to classifying state functions, no specific criteria have been developed to this day. This is due to the evolutionary development of the state, and at one stage or another of the development, attention to the functions of the state increases, while it decreases to certain functions. Today, as a result of globalization, there is also a need to approach state functions with new perspectives.

Keywords. State Building, soft power, hard power, information attack, digital security, globalization, integration, environmental crisis, social functions, diplomatic appeal, Information Age.

Ma'lumki davlat funksiyalarini tasniflashning an'anaviy mezonlaridan bugungi kunda ham foydalanib kelinadi. Davlat funksiyalarini tasniflashning klassik me'zonlariga ko'ra, davlat funksiyalari 4 ta asosiy xususiyati bo'yicha bo'lishimiz mumkin.

- faoliyat sohalari bo'yicha;
- amal qilish davomiyligi bo'yicha;
- ijtimoiy ahamiyati boyicha;
- amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yicha¹.

Shuningdek, bu 4 ta guruh ham ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linib ketadi. Biroq, bu tasniflash me'zonlari nisbiy jihatdan olingan desak ham bo'ladi. Chunki, funksiyalarni tasniflashda turli olimlar turlicha qarashlarni ilgari surishgan va ularning fikrlarini umumlashtirib yaxlit xulosaga kelinib shu usulda tasniflashni ko'plab olimlar o'rinni deb hisoblaydi. Lekin, bizningcha bu turdag'i

¹ Islomov Z. M. Davlat va huquq nazariyasi / mas'ul muharrirlar: X. Rahmanqulov, akademik, yu. F. D., Prof., X. Boyoyev, Y. F. D., prof. T.: Adolat, 2007 yil. 286-bet.



tasniflashga bugungi kundagi davlatatlarning siyosati, ular amalga oshirayotgan islohotlar doirasidan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritish kerak.

Bu borada bizning ilmiy tadqiqotlarimiz zamonaviy olimlar qarashlari natijasida olib borilib, tadqiqot natijasida davlat funksiyalarini zamonaviy usulda talqin qilish bo‘yicha ayrim o‘zgartirishlar kirtishga erishish mumkin. Misol uchun tadqiqotlar asosan, Fransis Fukuyamaning “Davlat qurilishi” asari hamda Jozef Nayning “Yumshoq kuch” konsepsiysi asosida olib borildi.

Hozirgi zamon tendensiylarining davlatlar va uning vazifalariga ta’sir o‘tkazishi hamda yangi sohalar (sun’iy intellekt, axborotlarning elektronlashuvi, davlat xizmatlarining integratsiyalashuvi vs uni raqamlashtirish natijalari) ning hayotga kirib kelishi natijasida davlat funksiyalarini ham yangicha me’zonlar asosida tasniflashni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy global tizimda davlatlar nafaqat hududiy va iqtisodiy muammolar, balki yangi shakldagi global tahdidlar – ekologik inqiroz, axborot xurujlari, raqamli xavfsizlik, migratsiya va pandemiyalar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bunday murakkab muhitda davlatlarning funksional faoliyati ham tubdan o‘zgarishni boshladi. Endilikda davlatdan faqat mudofaa va soliqqa oid ishlar emas, balki ekologik barqarorlik, axborot xavfsizligi, sun’iy intellektdan foydalanish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash kabi ko‘plab noan’anaviy vazifalarni bajarish kutilmoqda.

Biroq amalda davlat funksiyalarini tasniflashda hanuzgacha klassik yondashuvlar – ichki va tashqi, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalar ajratilishi yetakchilik qilmoqda. Bu esa davlat faoliyatining yangi ko‘rinishlarini nazariy jihatdan yetarli darajada ifoda eta olmaydi. Shu sababli, davlat funksiyalarini tasniflashda zamonaviy, holatga mos, kompleks va moslashuvchan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylangan.

Hozirda ko‘plab adabiyotlarda, darsliklada klassik usulda davlat funksiyalarini tasniflash haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lishiga qaramay



bu sohada yangilik qilish, yangi funksiyalarni qo'shish yoki mavjudlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ilmiy manbalarning kamligi aytishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda amaldagi davlat funksiyalari tasniflari ko'pincha tarixiy yoki an'anaviy model asosida tuzilgan bo'lib, ular axborot jamiyatni, ekologik xavfsizlik, raqamli transformatsiya kabi sohalarda davlatning ortib borayotgan rolini yetarlicha aks ettirmaydi. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini baholashda va davlat siyosatini rejalashtirishda muayyan nazariy va amaliy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi esa, davlat funksiyalarini yangicha yondashuvlar, ilmiy qarashlar asosida yoritib berish hamda davlat funksiyalarini boshqacha me'zonlar asosida guruhlarga bo'lishni ishlab chiqishdir. Globallashuv sharoitida axborot xurujlari, ko'zga ko'rinas tahdidlar, insoniyat oldida turgan muommolar natijasida davlatlar ham o'z oldida turgan muommolarni hal qilish chorasini ko'rmoqda. Buning uchun esa, albatta davlatning maqsadlari va uning asosida vujudga keladigan davlat vazifalari hamda uning funksiyalariga ham boshqacha e'tibor qarata boshlamoqda. Misol uchun, bir necha yuz yillar avval qaysidir sohani tartibga solish, davlat uchun muhim ahamiyat kasb etmagan va uni o'z funksiyalari doirasida ko'rmagan yoki qaysidir funksiya ta'siri ostidagi bo'lgan desak ham bo'ladi. Biroq bugungi kunda u aksincha ahamiyat kasb etib, shu e'tibor qaratilmagan soha tartibga solishni taqoza qilmoqda. Masalan o'rta asrlar davrida atrof tabiiy muhitni, umuman olganda, ekologiya sohasini tartibga solishni davlat o'zining asosiy funksiyalari doirasida ko'rmagan. Bunga ehtiyoj ham tug'ilmagan. Biroq bugungi kundagi ekologiya va atrof muhit sohasidagi muommolarning vujudga kelishi natijasida bu holat xato bo'lganini ko'rsatmoqda.

XXI asr axborot asri. Bu asrda barcha ma'lumotlar elektron shaklda olinadi va xuddi shunday tartibda beriladi. U xoh davlat o'rtasidagi aloqa bo'lsin xoh, fuqarolar o'rasidagi munosabatlar. Shu sababli ham bugungi kunda bacha ma'lumotlarimiz raqamlashtirilgan holda saqlanmoqda. Bu ham davlat



funksiyalarini zamonaviy usulda tasniflashga o‘zining ta’sirni o‘tkazadigan jarayon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, odamlar hayotining barcha sohalariga sun’iy intellekt texnologiyalari jadal sur’atlarda kirib kelmoqda. Ayrimlar bunga ijobiy qarasa, ayrim mutaxassislarning fikricha sun’iy intellekt kelajakda barchaga xavf tug‘diradigan “texnologiya” deb hisoblaydi. Bu ham davlat funksiyalarida yangicha yondashuvni ehtimol, tasniflashda yangi bir sohani qo‘sishni talab qilishi mumkin. Shu sababli ham davlat funksiyalarini tasniflashni yana bir bor ko‘rib chiqish o‘rinli bo‘ladi.

Global siyosiy tizimda davlatlar nafaqat harbiy yoki iqtisodiy kuch bilan, balki o‘zining madaniy, axloqiy va diplomatik jozibadorligi bilan ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Bunday yumshoq kuch ta’sir konsepsiysi 1990-yillarda amerikalik olim Josef Nay tomonidan ilgari surilgan va “yumshoq kuch” deb nomlangan. Ushbu konsepsiya bugungi kunda davlat funksiyalarini zamonaviy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqishda muhim omillardan biriga aylangan.

An’anaviy yondashuvlarda davlat funksiyalari odatda ichki va tashqi, ijtimoiy va iqtisodiy, mudofaa va xavfsizlik sohalari bo‘yicha tasniflanadi. Biroq XXI asrda xalqaro munosabatlar va axborot kommunikatsiyalarining keskin rivojlanishi sharoitida yumshoq kuch vositalari — madaniyat, qadriyatlar, ta’lim, tashqi siyosat jozibadorligi — davlat faoliyatining ajralmas qismiga aylangan².

Josef Nay ta’kidlaganidek, yumshoq kuch bu – “boshqalarni o‘z istagingizni ixtiyoriy ravishda bajarishga undovchi kuch”dir. Shunday qilib, davlatlar nafaqat majburlash (hard power), balki ilhomlantirish va o‘ziga jalb etish (soft power) orqali ham ta’sir ko‘rsatmoqda³. Bu holat davlat funksiyalarini yangicha tasniflash zaruratinini yuzaga keltiradi. Bu esa axborot siyosati, davlatni xalqaro imijini yaratish va uni himoya qilish, ta’lim sohasi diplomatiyasi kabi yo‘nalishlar alohida

² Nye J., “The future of power”, 2011.

³ Nye, J. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs.



funksional guruh sifatida qaralmoqda. Masalan, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSh va Fransiya o‘z yumshoq kuch vositalari orqali tashqi siyosatida katta yutuqlarga erishmoqda⁴. Ular milliy brend, ta’lim, madaniyat eksporti orqali boshqa davlatlar siyosatiga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir o’tkazmoqda.

Shu bilan bir qatorda davlat uchun kutilmagan holatlarning yuzaga kelishi ham davlatning funksiyalarini amalga oshirishda o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, tabiiy ofatlar davrida hukumat vakillari zudlik bilan vaqtinchalik chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi. Xuddi shunday holat pandemiya davrida ham sodir bo‘lganligini va bu barcha davlatlar siyosatiga qattiq ta’sir o’tkazib hattoki, ayrim davlatlar uchun bu ishlar vaqtinchalik funksiyalardan, doimiy funksiyalarga aylanganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotning yana bir muhim jihatni axborot texnologiyalari, raqamli dunyoning rivojlanishi natijasida bir qancha xizmatlarning elektronlashuvi ham davlatning faoliyatiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Josef Nayning “yumshoq kuch” konsepsiysi davlat funksiyalarini zamnaviyolashtirishda muhim nazariy asoslardan biridir. U orqali davlat siyosatining yangi funksional sohalari aniqlanmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun yumshoq kuch konsepsiysi xorijda milliy manfaatlarni ilgari surishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, davlat funksiyalarini tasniflashda “yumshoq kuch” komponentlarini alohida guruh sifatida ajratish, ular uchun strategik davlat siyosati ishlab chiqish zarur. Jumladan, an’anaviy davlat funksiyalari tasniflarining tarixiy shakllanishini tahlil qilish, axborot, raqamli va ekologik xavfsizlik sohalarida davlatning yangi funksiyalarini aniqlash, zamnaviy davlat funksiyalarining tasnifi uchun mezonlar

⁴ Nye, J. (1990). Bound to Lead: The Changing Nature of American Power.



tizimini ishlab chiqish amaliy misollar asosida funksiyalarni sintezlovchi yangi model konsepsiyasini taklif etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Islomov Z. M. Davlat va huquq nazariyasi / mas’ul muharrirlar: X. Rahamanqulov, akademik, yu. F. D., Prof., X. Boboyev, Y. F. D., prof. T.: Adolat, 2007. B-286 (672 b).
2. Nye J., “The future of power”, 2011.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent. “Adolat”, 2018. B-107 (528 b)
4. Qodirov U.A. O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etish sharoitida davlat funksiyalari. Diss..yuridik fanlari darajasi. –T.2011. B-14 (152 b)
5. Xojiyev E. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Yangi kitob”, 2017. B-19-21 (25 b)
6. M.Najimov, Sh.Saydullayev. Davlat funksiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2004. B-10 (37 b)
7. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik/ X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshqa.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida.-Toshkent.: Sharq”, 2009. B-104-105 (568 b)
8. Ashirbayeva M. X. O‘zbekiston davlatining mintaqaviy suv resurslaridan oqilona foydalishni tashkil etish funksiyasi va uning huquqiy jihatlari. Diss....yuridik falsafa fanlari bo‘yicha . –Toshkent-2020. B-28-29 (170 b)
9. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / o‘quv qo‘llanma –Toshkent. TDYUI, 2011. B-32-33- (170 b)
10. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2001. B-190-191 (336 b)